



№6/2026

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

ADPI
Ilmiy xabarnomasi

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINING HARAKAT FAOLLIGINI OSHIRISHDA GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINING SAMARADORLIGI

Mamatqodirov Ziyatullo Nodirbek o'g'li

Qoqon Universiteti Andijon filiali

Annotatsiya.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faolligini oshirishda gimnastika mashg'ulotlaridan foydalanishning pedagogik samaradorligi masalasi yoritilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning kundalik harakat faolligini oshirish, jismoniy sifatlarini rivojlantirish hamda gimnastika mashqlarining ta'lim jarayonidagi imkoniyatlarini ilmiy-pedagogik jihatdan asoslashdan iborat. Tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, pedagogik tajriba-sinov, nazorat mashqlari, qiyosiy tahlil va matematik-statistik usullardan foydalanildi. Tajriba jarayonida gimnastika mashqlarini tizimli, bosqichma-bosqich va yosh xususiyatlariga mos holda qo'llash o'quvchilarning tezkorlik, chaqqonlik, kuch, egiluvchanlik va muvofiqlashtirish qobiliyatlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Olingan natijalar boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida gimnastika mashg'ulotlaridan maqsadli foydalanish o'quvchilarning umumiy harakat faolligini oshirishning samarali pedagogik vositasi ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar:

boshlang'ich sinf, o'quvchi, harakat faolligi, gimnastika, jismoniy tarbiya, jismoniy sifatlar, chaqqonlik, tezkorlik, kuch, egiluvchanlik, pedagogik tajriba.

Аннотация.

В данной статье рассматривается вопрос педагогической эффективности использования гимнастических занятий для повышения двигательной активности учащихся начальных классов. Основная цель исследования заключается в повышении уровня повседневной двигательной активности детей младшего школьного возраста, развитии их физических качеств, а также научно-педагогическом обосновании возможности использования гимнастических упражнений в образовательном процессе. В ходе исследования были применены методы педагогического наблюдения, педагогического эксперимента, контрольных упражнений, сравнительного анализа и математико-статистической обработки данных. Установлено, что систематическое, поэтапное и соответствующее возрастным особенностям применение гимнастических упражнений оказывает положительное влияние на развитие быстроты, ловкости, силы, гибкости и координационных способностей учащихся. Полученные результаты свидетельствуют о том, что целенаправленное использование гимнастических занятий на уроках физической культуры в начальной школе является эффективным педагогическим средством повышения общей двигательной активности учащихся.

Ключевые слова:

начальная школа, учащиеся, двигательная активность, гимнастика, физическое воспитание, физические качества, ловкость, быстрота, сила, гибкость, педагогический эксперимент.

Abstract.

This article examines the pedagogical effectiveness of using gymnastics sessions to increase the physical activity of primary school students. The main purpose of the study is to increase the level of daily physical activity among children of primary school age, develop their physical qualities, and provide a scientific and pedagogical justification for the potential of gymnastics exercises within the educational process. The study employed pedagogical observation, a pedagogical experiment, physical fitness tests, comparative analysis, and mathematical and statistical methods. The findings demonstrated that the systematic, gradual, and age-appropriate application of gymnastics exercises has a positive effect on the development of students' speed, agility, strength, flexibility, and coordination abilities. The results indicate that the purposeful integration of gymnastics sessions into primary school physical education lessons constitutes an effective pedagogical means of increasing students' overall physical activity.

Keywords:

primary school, students, physical activity, gymnastics, physical education, physical qualities, agility, speed, strength, flexibility, pedagogical experiment.

Kirish: Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning intellektual rivojlanishi bilan bir qatorda ularning jismoniy salomatligi, harakat faolligi va sog'lom turmush tarziga bo'lgan ehtiyojini shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich maktab yoshida bolaning organizmi jadal rivojlanishi, asosiy harakat ko'nikmalari

shakllanishi va jismoniy sifatlarning takomillashib borishi sababli ushbu davrda tashkil etiladigan jismoniy tarbiya mashg'ulotlari keyingi jismoniy rivojlanish uchun muhim poydevor vazifasini bajaradi.

Harakatga o'rgatish eng kichik yoshdan boshlanadi hamda hayot uchun zarur bo'lgan harakat malaka va ko'nikmalari "osondan - murakkabga" didaktik tamoyili asosida izchil va bosqichma-bosqich shakllantirib boriladi [1]. Mazkur fikr boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faolligini oshirishda gimnastika mashg'ulotlarini tashkil etishning metodik asoslarini belgilash uchun muhim nazariy manba hisoblanadi. Chunki boshlang'ich maktab yoshida bolaning harakat tajribasi hali to'liq shakllanmagan bo'lib, mashqlarni murakkablik darajasini hisobga olmasdan berish kutilgan pedagogik natijani ta'minlamaydi. Gimnastika mashg'ulotlarida dastlab sodda umumrivojlantiruvchi mashqlar, yurish, yugurish, muvozanatni saqlash, oddiy sakrash va tayanish mashqlaridan foydalanib, keyinchalik ularning murakkabligini bosqichma-bosqich oshirib borish Salomov tomonidan ilgari surilgan "osondan - murakkabga" tamoyilining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kun tartibida o'quv faoliyatining ustunligi, uzoq vaqt davomida o'tirib ishlash, bo'sh vaqtning raqamli vositalar bilan bog'liq holda o'tkazilishi harakat faolligining yetarli darajada bo'lmasligiga olib kelishi mumkin. Harakat faolligining pasayishi esa bolaning jismoniy rivojlanishi, ish qobiliyati, koordinatsion imkoniyatlari va umumiy funksional holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi ehtimolini oshiradi. Shu sababli maktab ta'limida o'quvchilarning tabiiy harakat ehtiyojini to'g'ri yo'naltirish va uni pedagogik jihatdan samarali tashkil etish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya darslari mazkur vazifani hal etishning asosiy vositalaridan biri bo'lsa-da, uning samaradorligi mashqlar mazmuni, yuklama hajmi, mashg'ulotlarning muntazamligi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish hamda pedagogik metodlarning to'g'ri tanlanishiga bevosita bog'liq. Gimnastika mashqlari esa harakatlarni aniq bajarish, muvozanatni saqlash, egiluvchanlik, kuch va chaqqonlikni rivojlantirish imkonini berishi bilan boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun alohida ahamiyat kasb etadi.

Gimnastika mashqlari bajarilishi jarayonida o'quvchilarda intizom, mas'uliyat, o'zini nazorat qilish, irodaviy barqarorlik kabi sifatlar shakllanadi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf yoshida jismoniy faoliyat orqali shaxsning ma'naviy-irodaviy rivojlanishi tezroq va samaraliroq amalga oshadi. Gimnastika mashg'ulotlari shaxsning irodaviy sifatlarni shakllantirishda ham muhim o'rin tutadi [2]. Harakatlarni takror-takror bajarish, murakkab elementlarni o'zlashtirish jarayoni qat'iyat, sabr-toqat va maqsadga intilish kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Ayniqsa, boshlang'ich sinf yoshida ijobiy emotsional fonni ta'minlagan holda o'tkazilgan gimnastika mashg'ulotlari bolalarda o'ziga ishonch hissini kuchaytiradi [3].

T.S.Usmonxo'jayev: jismoniy tarbiya jarayonini o'quvchining har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi pedagogik jarayon sifatida talqin etadi [4]. Ushbu ilmiy-metodik yondashuvdan kelib chiqib, gimnastika mashg'ulotlarining tarbiyaviy imkoniyatlarini faqat jismoniy sifatlarni rivojlantirish bilan chegaralab qo'yish maqsadga muvofiq emas.

Gimnastik mashqlarni bajarish jarayonida o'quvchi belgilangan qoidalarga amal qiladi, o'z harakatlarini nazorat qiladi, mashqni to'g'ri va oxirigacha bajarishga intiladi hamda murakkab harakatlarni egallash jarayonida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni yengib boradi [5]. Natijada unda intizomlilik, mas'uliyat, sabr-toqat, qat'iyat va o'zini boshqarish kabi irodaviy sifatlarning rivojlanishi uchun pedagogik sharoit yuzaga keladi. Demak, gimnastika

mashg'ulotlarini maqsadli tashkil etish boshlang'ich sinf o'quvchilarining nafaqat harakat faolligini, balki ularning shaxsiy-irodaviy rivojlanishini ham qo'llab-quvvatlaydi.

Shu nuqtayi nazardan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faolligini oshirishda gimnastika mashg'ulotlarining samaradorligini aniqlash, ularning mazmuni va metodik tashkil etish xususiyatlarini ilmiy jihatdan asoslash jismoniy tarbiya nazariyasi va amaliyoti uchun muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faolligini oshirishda gimnastika mashg'ulotlaridan foydalanish samaradorligini pedagogik tajriba asosida aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat: boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faolligi holatini o'rganish; gimnastika mashqlarining o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini aniqlash; gimnastika mashg'ulotlariga asoslangan pedagogik yondashuvni ishlab chiqish; tajriba-sinov natijalari asosida uning samaradorligini baholash.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya jarayonida gimnastika mashg'ulotlarini tizimli qo'llashning harakat faolligiga ta'sirini aniqlashga yo'naltirildi. Tadqiqotda boshlang'ich sinf yoshidagi 60 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Ular teng tarkibdagi tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi. Tajriba guruhida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarining mazmuni gimnastika mashqlarini tizimli ravishda qo'llash asosida tashkil etildi, nazorat guruhida esa amaldagi mashg'ulotlar mazmuni saqlab qolindi.

Pedagogik tajriba 12 hafta davomida tashkil etilib, mashg'ulotlar haftasiga uch marotaba o'tkazildi. Har bir mashg'ulotning davomiyligi o'rtacha 35 daqiqani tashkil etdi. Tajriba dasturini ishlab chiqishda boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning yosh va individual xususiyatlari, jismoniy yuklamaga moslashish imkoniyatlari hamda harakatlarni o'zlashtirish darajasi hisobga olindi.

Mashg'ulotlarning mazmuni bir necha o'zaro bog'liq yo'nalishlardan tashkil topdi. Tayyorlov qismida saf mashqlari, yurish, yengil yugurish va umumrivojlantiruvchi mashqlar bajarildi. Asosiy qismda qo'l, oyoq va gavda mushaklarini rivojlantirishga qaratilgan mashqlar, muvozanatni saqlash, turli yo'nalishlarda harakatlanish, sakrash, tayanish, sudralish, oddiy akrobatik elementlar va koordinatsion mashqlardan foydalanildi. Yakuniy qismda esa nafasni tiklash, mushaklarni bo'shashtirish va harakatlarni me'yorlashtirishga yo'naltirilgan mashqlar bajarildi.

Mashg'ulotlarda yuklamani bosqichma-bosqich oshirish tamoyiliga amal qilindi. Dastlab nisbatan sodda va kam intensivlikdagi mashqlar berilib, keyinchalik ularning takrorlanish soni, bajarish tezligi, harakatlarning murakkabligi va koordinatsion talablari asta-sekin oshirildi. Bunday yondashuv o'quvchilarning jismoniy imkoniyatlarini hisobga olgan holda mashg'ulot samaradorligini ta'minlashga xizmat qildi.

Tadqiqotda o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligi 30 metrga yugurish, turgan joydan uzunlikka sakrash hamda 4×10 metrga mokisimon yugurish kabi nazorat mashqlari orqali baholandi. Mazkur testlar mos ravishda tezkorlik, oyoq mushaklarining kuch imkoniyatlari va chaqqonlikni baholash imkonini berdi. Bundan tashqari, pedagogik kuzatuv asosida dars jarayonidagi o'quvchilarning faol ishtiroki, mashqlarni bajarishdagi harakatchanligi va mashg'ulotga qiziqishi ham qayd etib borildi.

Olingan natijalarni tahlil qilishda guruhlarining dastlabki va yakuniy ko'rsatkichlari qiyoslandi. Tadqiqot jarayonida o'quvchilarning individual farqlari ham hisobga olinib, natijalarning o'zgarish dinamikasiga asosiy e'tibor qaratildi.

Natijalar: Pedagogik tajriba yakunida tajriba va nazorat guruhlarining jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlarida sezilarli farqlar kuzatildi. Gimnastika mashg'ulotlari tizimli ravishda tashkil etilgan tajriba guruhida barcha asosiy nazorat ko'rsatkichlarining ijobiy dinamikasi qayd etildi.

Ko'rsatkichlar	Tajriba guruhi, dastlab	Tajriba guruhi, yakuniy	O'zgarish	Nazorat guruhi, yakuniy
30 m yugurish, sekund	6,4	5,6	11-13%	3-5%
Turgan joydan uzunlikka sakrash, sm	125	144	14-16%	3-5%
4×10 m mokisimon yugurish, sekund	12,8	10,7	15-17%	3-5%

1-jadval. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tajriba oldi va tajriba yakunidagi jismoniy tayyorgarlik ko'rsatkichlari

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tajriba guruhida 30 metrga yugurish natijasi tajriba yakunida sezilarli darajada yaxshilangan. Bu holat gimnastika mashqlarining harakat tezligini rivojlantirish va qisqa muddatli yuqori intensivlikdagi harakatlarni bajarish qobiliyatini takomillashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatganini anglatadi.

Turgan joydan uzunlikka sakrash ko'rsatkichlaridagi o'sish esa oyoq mushaklarining kuch va tezkor-kuch imkoniyatlari rivojlanganini ko'rsatdi. Gimnastika mashg'ulotlari tarkibida sakrash, yarim o'tirish, tayanish, deysinish va boshqa dinamik mashqlarning muntazam qo'llanilishi ushbu natijaga ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Eng yuqori o'sish 4×10 metrga mokisimon yugurish ko'rsatkichida qayd etildi. Mazkur natija o'quvchilarning harakat yo'nalishini tez o'zgartirish, muvozanatni saqlash, harakatlarni muvofiqlashtirish va tezkor qaror qabul qilish qobiliyatlari yaxshilanganini ko'rsatadi. Gimnastika mashqlarining koordinatsion xususiyati mazkur jismoniy sifatning rivojlanishida muhim omil bo'lib xizmat qilgan.

Tadqiqot davomida o'quvchilarning darsdagi harakat faolligi ham ijobiy tomonga o'zgargani kuzatildi. Tajriba guruhidagi o'quvchilar mashqlarni bajarishda faolroq ishtirok etib, topshiriqlarni bajarishga bo'lgan qiziqishlari ortdi. Ayniqsa, mashqlarni o'yin elementlari bilan uyg'unlashtirish, kichik guruhlarda tashkil etish va harakatlarni musobaqa shaklida bajarish o'quvchilarning darsdagi motor faolligini kuchaytirdi.

Tajriba natijalari gimnastika mashg'ulotlarini faqat alohida jismoniy sifatlarni rivojlantirish vositasi sifatida emas, balki boshlang'ich sinf o'quvchilarining umumiy harakat faolligini boshqarish va oshirishga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik vosita sifatida qarash zarurligini ko'rsatdi.

Muhokama: Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilarning harakat faolligini oshirish masalasi, avvalo, bolaning tabiiy harakat ehtiyojini ta'lim jarayonining mazmuni bilan uyg'unlashtirishni talab etadi. Ushbu yosh davrida bolalar harakatga bo'lgan ehtiyojining yuqoriligi bilan ajralib turadi. Shu sababli jismoniy tarbiya darslarida uzoq davom etadigan bir

xil mashqlarni qo'llash o'quvchilarning qiziqishini pasaytirishi mumkin. Gimnastika mashqlarining xilma-xilligi esa bunday muammoni kamaytirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, gimnastika mashg'ulotlarining samaradorligi faqat mashqlar sonining ko'pligi bilan emas, balki ularning to'g'ri tanlanishi va mashg'ulot davomida oqilona taqsimlanishi bilan belgilanadi. Xususan, oddiy harakatlardan murakkabroq harakatlarga izchil o'tish, mashqlar orasidagi tanaffuslarni maqsadga muvofiq tashkil etish va yuklamani bolaning imkoniyatlariga moslashtirish mashg'ulotlarning samaradorligini oshiradi.

Gimnastika mashqlarining yana bir muhim jihati ularning ko'p tomonlama ta'sir xususiyatiga egaligidir. Masalan, oddiy sakrash mashqlari nafaqat oyoq mushaklarining kuchini, balki tezkorlik va muvozanatni ham rivojlantiradi. Muvozanat mashqlari esa gavdani boshqarish bilan bir qatorda koordinatsion qobiliyatlarni takomillashtiradi. Shu jihatdan gimnastika mashqlarini boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faolligini oshirish vositasi sifatida qo'llash kompleks rivojlantiruvchi xususiyatga ega.

Tajriba jarayonida o'yin elementlaridan foydalanish ham muhim natija berdi. Boshlang'ich sinf o'quvchisi uchun jismoniy mashq faqat jismoniy yuklama emas, balki qiziqarli faoliyat sifatida tashkil etilganda uning mashg'ulotga jalb qilinishi kuchayadi. Harakatli o'yinlar, estafetalar, juftlik va kichik guruhlarda bajariladigan gimnastik topshiriqlar o'quvchilarning dars davomida faol harakatlanishini ta'minlash bilan birga, ularda jamoaviylik, intizom va o'zaro hamkorlik ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

Tadqiqot natijalaridagi ijobiy o'zgarishlar gimnastika mashg'ulotlarini muntazam tashkil etish o'quvchilarning jismoniy tayyorgarligini yaxshilash bilan bir qatorda ularning jismoniy tarbiya darslariga bo'lgan munosabatini ham ijobiy tomonga o'zgartirishi mumkinligini ko'rsatadi. Bunda o'qituvchining pedagogik mahorati, mashqlarni tushuntirish usuli, ko'rsatmalarning aniqligi va o'quvchilar faoliyatini individual nazorat qilishi muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faolligini oshirish faqat haftalik jismoniy tarbiya darslari bilan cheklanmasligi kerak. Ertalabki badantarbiya, darslar orasidagi faol tanaffuslar, maktabdan tashqari sport-gimnastika mashg'ulotlari ham yagona pedagogik tizim sifatida tashkil etilganda kutilgan natija yuqoriroq bo'ladi. Gimnastika mashqlarining sodda va xavfsiz elementlarini kundalik faoliyatga kiritish bolaning harakatga bo'lgan ehtiyojini muntazam qondirish imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faolligini oshirishda gimnastika mashg'ulotlaridan foydalanishning pedagogik jihatdan samarali ekanligini ko'rsatdi. Biroq mashg'ulotlarni tashkil etishda o'quvchilarning yosh, jins, jismoniy tayyorgarlik darajasi va individual imkoniyatlarini hisobga olish zarur. Haddan tashqari yuqori yuklama berish o'quvchilarning mashg'ulotga bo'lgan qiziqishini pasaytirishi va charchoqni kuchaytirishi mumkin. Shuning uchun gimnastika mashg'ulotlarida yuklamaning hajmi va intensivligi pedagogik nazorat ostida bosqichma-bosqich oshirib borilishi maqsadga muvofiq.

Xulosa: Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining harakat faolligini oshirishda gimnastika mashg'ulotlaridan foydalanish samarali pedagogik vosita ekanligi aniqlandi. Gimnastika mashqlarini tizimli, muntazam va o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos ravishda tashkil etish ularning jismoniy tayyorgarligini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

Pedagogik tajriba natijalarida tajriba guruhida tezkorlik, kuch va chaqqonlik ko'rsatkichlarining nazorat guruhiga nisbatan yuqoriroq o'sishi kuzatildi. Xususan, 30 metrga yugurish natijalari 11-13 foizga, turgan joydan uzunlikka sakrash ko'rsatkichlari 14-16 foizga, 4×10 metrga mokisimon yugurish natijalari esa 15-17 foizga yaxshilandi. Bu o'zgarishlar gimnastika mashqlarining boshlang'ich sinf o'quvchilari jismoniy rivojlanishiga kompleks ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

Gimnastika mashg'ulotlarining samaradorligini ta'minlash uchun mashqlarni oddiydan murakkabga tamoyili asosida tanlash, yuklamani bosqichma-bosqich oshirish, o'yin va musobaqa elementlaridan foydalanish, mashg'ulotlarda yuqori motor zichlikni ta'minlash hamda o'quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish maqsadga muvofiq.

Shu asosda boshlang'ich sinf jismoniy tarbiya darslarida gimnastika mashqlarining ulushini metodik jihatdan asoslangan holda kengaytirish, ularni ertalabki badantarbiya va faol tanaffuslar bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning kundalik harakat faolligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuv o'quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish bilan bir qatorda ularda sog'lom turmush tarziga ijobiy munosabatni shakllantirish uchun ham qulay pedagogik sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Salomov R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. Darslik. - Toshkent: 2014. - 296 b.
2. Mamatqodirov Z.N. Magistrlik dissertatsiyasi. Andijon: 2026. - 82 b
3. Abdullayev A., Xonkeldiyev Sh.X. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati. - Toshkent: O'zDJTI nashriyoti, 2005. - 300 b.
4. Usmonxo'jayev T.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. - Toshkent: 2008. - 170 b.
5. Axmedov F.Q., Atamurodov Sh.O'. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. - Toshkent, 2019. - 180 b.
6. Z.N.Mamatqodirov Yoshlarni sog'lom va barkamol qilib tarbiyalashda sport mashg'ulotlarining o'rni va ahamiyati. Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali 2(1), 183-187.

Z.E.Azimova

OLIIY TA'LIMDA MA'NAVIY-MA'RIFIY TIZIMNING INTEGRAL MODELI: NAZARIYA VA QIYOSIY TAHLIL.....	69	73
---	----	----

Raxmatullayeva Gulnoza Mavlanjonovna

MILLIY G'OYA VA HUQUQIY FANLAR INTEGRATSIYASI VOSITASIDA TALABALARNING QADRIYATLI ORIENTATSIYASINI RIVOJLANTIRISH	74	77
---	----	----

Hakimov Nazar Hakimovich

OLIIY TA'LIMDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TAKOMILLASHTIRILISH ZARURIYATI.....	78	82
---	----	----

Sirojiddinova Gulnora Habibullo qizi

KREATIVLIK FAOLIYATINING ILMIY TADQIQOT NATIJALARI.....	83	86
---	----	----

Jo'rayev Shuhratbek Maxamadaliyevich

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MANTIQUIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIY ASOSLAR.....	87	91
--	----	----

Sirojiddinova Gulnora Habibullo qizi

TALABALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI.....	92	96
--	----	----

D.G.Umnov

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF STUDYING THE IMPACT OF TARGETING ON THE CONSUMPTION CULTURE OF PRESCHOOL CHILDREN BY FUTURE EDUCATORS	97	109
---	----	-----

Нематова Наргизахон Мухтор кизи

ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ АНИМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ РУССКОГО ЯЗЫКА СТУДЕНТАМ НЕФИЛОЛОГИЧЕСКИХ ВУЗОВ УЗБЕКИСТАНА	110	115
--	-----	-----

Abdurakhimov Abdulatif Umurzakovich

YUQORI ENERGIYALAR FIZIKASIDA YADROVIY MODDANI YARATISH.....	116	119
--	-----	-----

Zarnigor Dripova, Umid Turdialiye

BENEFICIATION OF GLAUCONITE ORE FROM THE CHANGI DEPOSIT (UZBEKISTAN) VIA GRINDING AND MAGNETIC SEPARATION	120	132
---	-----	-----

Zaparov A.A.

THE DEVELOPMENT OF ANTI-CORROSION HETEROCOMPOSITE COATINGS FOR MACHINE PARTS BY USING LOCAL RAW MATERIALS	133	138
---	-----	-----

Умнова М.К

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСУРСОВ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ПОДГОТОВКЕ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ	139	149
--	-----	-----

Mamatqodirov Ziynatulloh Nodirbek o'g'li

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING HARAKAT FAOLLIGINI OSHIRISHDA GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINING SAMARADORLIGI.....	150	155
--	-----	-----

